

## LOYIHALASH USULIDAN INGLIZ TILI DARSLARIDA FOYDALANISH

Zoitova Zarina Yorqinjon qizi  
IIV “Farg’ona” akademik litseyi  
Ingliz tili fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** *Maqolada pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalasida ingliz tili darslarida loyihalarni yaratishda andoza hamda ta’lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish bo’yicha fikrlar yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *usul, savodxonlik, kasbiy kompetensiyalar, ko’nikmalar.*

Mamlakatimizdagi ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar, uning ertangi dunyo hamjamiyatida egallaydigan o’rnini belgilab beradi. Global muammolarni anglash, kreativ fikrlash, tanqidiy yondashish, axborotlar bilan ishlash ko’nikmalariga hamda olgan bilimlarini turli hayotiy (shaxsiy hayot, ta’limiy-kasbiy faoliyat, ijtimoiy hayot va ilmiy faoliyat) vaziyatlarda qo’llash darajasiga ega bo’lgan yoshlar XXI asr kasblarini egallab, raqobatbardosh kadrlar bo’la oladilar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 24-yanvar kuni oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida quyidagi fikrlar ta’kidlab o’tildi: «...maktab o’quv dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o’quv yuklama va fanlarini qayta ko’rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur». Shu nuqtayi nazardan xalqaro baholash dasturlari bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish bugungi kun ta’limining dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Innovatsion ta’lim jarayoniga o’tish, zamonaviy kadrlarga bo’lgan ehtiyojni inobatga olgan holda AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o’rganish, STEM pedagogika asoslarini, yangi kasbiy kompetensiyalarni o’zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi. Insonning hayoti davomida doimiy ravishda oladigan bilim, ko’nikma va malakalarini keng qamrovli hayotiy masalalar yechimini topishga va o’z faoliyatining turli sohalarida duch keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida qo’llay olishga yo’naltirishda ingliz tili bo’yicha savodxonlikni shakllantirish masalalariga to’xtalib o’tmoqchimiz. Ingliz tili savodxonligi - bu insonning u yashayotgan dunyoda ingliz tili o’rnini aniqlash va tushunish, asoslangan mulohazalar yuritish hamda fikrlaydigan, qiziquvchan va ijodkor fuqaro sifatida hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish maqsadida ingliz tilidan foydalanish



qobiliyati hisoblanadi. Butun dunyoda e'tirof etilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, tabiiy-ilmiy savodxonliklari bilan ingliz tili savodxonliklari darajasini ham baholaydi. Ushbu tadqiqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish va 2030-yildagi tadqiqotda birinchi 30 talikka kirishga erishishning quyidagi yo'llari bor deb hisoblayman:

- PISA tadqiqotlari doirasidagi taqdim qilingan topshiriqlarni yechib ko'rsatish asosida o'quvchilarda bunday topshiriqlarga ko'nikma hosil qilish;

- tafakkur asosida bilimlarni shakllantirish, ya'ni vaziyatlar yaratib, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlarda, jamoada tajriba, tadqiqot o'tkazish asosida muhokama qilish, yechish yo'llarini izlash va xulosalar chiqarish;

- turli loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonida savollar berish asosida va muammolarni aniqlash, modellar ishlab chiqish va qo'llash, berilganlarni tahlil va talqin qilish, matematik va hisoblash tafakkurini ishlatish, berilganlarini tartiblashtirish va yechimlarini ishlab chiqish, dalillar asosida isbotlash, axborotlarni qabul qilish, baholash va uzatish, tadqiqotlarni rejalashtirish va o'tkazish.

O'quvchilarda ingliz tili savodxonligini rivojlantirish maqsadida quyidagi loyihalarni taklif qilish mumkin: «Mahallamiz fuqarolarining yosh ko'rsatkichlari», «Guruximizning o'zlashtirish darajasi», «ingliz tili quruvchiga kerakmi?», «Bankka qo'yilgan sarmoya», «Alifbo», va hakazo. Loyihalar yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlarda va jamoada ishlab chiqiladi. Har bir ishtirokchi o'z vazifasini bajaradi. Loyihalar hajmiga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi va har bir bosqichi ishlab chiqilishini talab etadi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- tashkiliy qismida loyiha maqsadi, kimlar ishtirok etishi, necha bosqichga bo'linishi, qanday natija kutilayotganligi rejalashtiriladi;

- mazmuni ishlab chiqishda vazifalar taqsimlanadi, qilinadigan ishlar aniqlashtiriladi;

- jarayonda taqsimlangan ishlar yuzasidan ma'lumotlar va axborotlar umumlashtiriladi;

- loyiha yakunida mahsulot (hisobot, intervyu, devoriy gazeta, taqdimot, videorolik, maket, model, jadval, diagramma va b.) shaklida himoya qilinadi. Loyihalash usulida kuchli o'quvchi va kuchsiz o'quvchi degan tushuncha bo'lmaydi, hamma faol ishtirok etadi. U hamma uchun qiziq, mazmunli va natijali faoliyat hisoblanadi.

Loyihalash usulining afzalliklari quyidagicha:

- O'quvchilarga alohida predmetlar o'rtasidagi, maktabdagi mashg'ulotlar va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqani ko'rishga yordam beradi.



□ O`quvchilarni biron faoliyatni olib borish, o`z vaqtini rejalashtirish va jadval bo`yicha ishlash uchun o`z-o`zini tashkillashtirishga o`rgatadi.

□ O`quvchilarga o`qituvchi boshchiligida ta`lim olish jarayonini boshqarishga imkon beradi.

□ O`quvchilar ham bir-biri bilan, ham maktabdan tashqarida turli odamlar bilan hamkorlik qilishlari uchun imkon yaratadi.

□ O`quvchilarni o`z tadqiqotlarining natijalarini va o`z fikrini ifodalash va omma oldida himoya qilishga o`rgatadi, va bu o`quvchilar huquqlarini targ`ib etishda muhim ko`nikma hisoblanadi.

Xulosa sifatida Djon Dyuning fikrini keltirmoqchiman: «Agar biz bugun kechagiday o`qitsak, bolalarimizning kelajagini o`g`irlagan bo`lamiz».

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. 2017.
3. Tolipov O.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot., Toshkent: “Fan”. 2015.

